INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI

Radjabkulov Otaxon Rustam o'g'li O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti, TMC Instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida evfemizmlarning pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot evfemizmlarning kommunikativ vazifasi, madaniy kontekstdagi o'rni va ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyatini o'rganadi. Muallif evfemizmlarning hosil bo'lish mexanizmlari, semantik o'zgarishlari hamda ikkala tilda ularning qo'llanilish sohalari (din, siyosat, tibbiyot, ijtimoiy tabaqalanish, jins va vafot mavzulari) ni tahlil etadi. Maqolada o'zbek va ingliz madaniyatidagi evfemistik iboralar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, ularning lingvokulturologik tabiati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, pragmatika, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, til va madaniyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ прагматических и лингвокультурологических особенностей эвфемизмов в английском и узбекском языках. Исследование посвящено изучению коммуникативной функции эвфемизмов, их роли в культурном контексте и значения в системе социальных отношений. Автор анализирует механизмы образования эвфемизмов, их семантические трансформации, а также сферы употребления в обоих языках (религия, политика, медицина, социальная стратификация, гендерная тематика, смерть и болезни). В статье выявляются сходства и различия между эвфемистическими выражениями в узбекской и английской культурах и раскрывается их лингвокультурологическая природа.

Ключевые слова: эвфемизм, прагматика, лингвокультурология, сравнительное языкознание, английский язык, узбекский язык, межкультурная коммуникация, язык и культура.

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the pragmatic and linguocultural characteristics of euphemisms in English and Uzbek languages. The study investigates the communicative function of euphemisms, their role in cultural context, and their significance in the system of social relations. The author examines the mechanisms of euphemism formation, semantic transformations, and the domains of their usage in both languages, including religion, politics, medicine, social stratification, gender issues, death, and disease. The article identifies similarities and differences between euphemistic expressions in Uzbek and English cultures and reveals their linguocultural nature. The findings demonstrate that euphemisms are not merely a linguistic phenomenon, but a linguocultural tool reflecting the national mentality, values, and worldview of each people.

Keywords: euphemism, pragmatics, linguoculturology, contrastive linguistics, English language, Uzbek language, intercultural communication, language and culture

Til va madaniyat o’rtasidagi munosabat zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo’lib, bu sohadagi tadqiqotlar lingvokulturologiya, pragmalingvistika va qiyosiy tilshunoslik chorrahasida olib borilmoqda. Evfemizmlar mazkur munosabatni namoyon etuvchi eng yorqin til hodisalaridan biri hisoblanadi. Evfemizm (yun. eu — yaxshi, phemi — gapiryapman) qo’pol, xafa qiluvchi yoki noo'rin deb hisoblangan so’z va iboralarni muloyimroq, sof, noaniqroq shakllar bilan almashtirish hodisasidir. Evfemizmlar nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy psixologiya, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyatdagi tabu (taqiq) tizimi bilan uzviy bog’liq bo’lib, insonlarning nutqiy xulq-atvori, ijtimoiy me’yorlar va madaniy qadriyatlarni aks

ettiradi. Ingliz va o’zbek tillarida evfemizmlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo’lib, bu ikki tilning ijtimoiy-madaniy muhiti, tarixiy rivojlanishi va lingvistik tizimining farqlaridan kelib chiqadi.

Evfemizmlar tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo'lib, bu hodisani o’rganishga bag’ishlangan ilmiy ishlar XIX asrdan boshlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda evfemizm nazariyasining rivojlanishiga bir qator olimlar muhim hissa qo’shgan. Allan va Burridge (1991) o’zlarining asosiy tadqiqotida evfemizmlarning ijtimoiy va kognitiv asoslarini batafsil yoritib, ularni “odobli til” (polite language) hodisasi sifatida ta’riflaydi. Rawson (1981) esa evfemizmlarni “insonlar haqiqatni ro’y-rost aytishdan qochish uchun foydalaniladigan so'zlar” deb ta’riflaydi.

O’zbek tilshunosligida evfemizmlarni o’rganish bo’yicha A. Omonturdiyev, N. Mamatov, Sh. Safarov va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilshunosligida Leech (1983) ning pragmatika sohasidagi asarlarida evfemizmlar “ijtimoiy odoblilik” (social politeness) tamoyili bilan bog”liqligini takidlagan. Brown va Levinson (1987) ning “yuz strategiyalari” (face-saving strategies) nazariyasi evfemizmlarning pragmatik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Holder (2008) evfemizmlarning keng qamrovli lug’atini tuzib, ularni tematik guruhlarga ajratgan.

Lingvokulturologik aspektda evfemizmlarni o’rganish Wierzbicka (1997) ning madaniy semantika nazariyasiga asoslanadi. Olima madaniyatlar o’rtasidagi tilshunoslik farqlarini o'rganib, har bir til o'z madaniyatining o'ziga xos dunyoqarashini aks ettirishini ko’rsatgan.

Ingliz tilida evfemizmlar turli lingvistik mexanizmlar orqali hosil bo’ladi. Birinchi va eng keng tarqalgan usul metaforizatsiya, yani so’zning ko’chma manoda ishlatilishi. Masalan, “to pass away” (vafot etmoq) iborasida harakatni ifodalovchi so’z o’lim manosini yumshatib ifodalaydi. “Collateral damage” (tinch aholi qurbonlari) harbiy sohada keng qo’llanuvchi metaforik evfemizmga misol bo’la oladi.

Ikkinchi usul eufemistik perifraza (circumlocution), yani bir so’z o’rniga uzoq, murakkabroq iboralarni qo'llash. “Visually impaired” (ko’zi ojiz) yoki “differently abled” (nogiron) kabi iboralar bunga misol bo'ladi. Uchinchi usul kichraytiruvchi qo’shimchalar va so’zlar yordamida yumshatish: “a little” (ozgina), “slight” (ozgina) so’zlari yoqimsiz manoni yumshatadi. To’rtinchi usul abbreviatsiya va qisqartmalar: "BS" (bull***), "F-word", "SOB" kabi qisqartmalar ham evfemistik vazifani bajaradi.

Beshinchi usul so'z ma'nosini umumlashtirish (generalization), ya'ni aniq va qo'pol ma'noli so'z o'rniga umumiy ma'noli so'zlarni ishlatish. "Sanitation engineer" (axlat teruvchi) yoki "domestic engineer" (uy bekasi) kabi iboralar professional nomlarni yumshatish maqsadida ishlatiladi. Oltinchi usul chet tillardan so’z olish: lotin va fransuz tillaridan olingan so'zlar ingliz tilida ko'pincha evfemistik vazifani bajaradi, masalan, “perspire” (ter chiqmoq) o'rniga formalroq bo'lgan "perspire" yoki "defecate" kabi tibbiy atamalar.

O’zbek tilida evfemizmlar hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Arabcha va forscha so’zlar yordamida yumshatish: arabcha “vafot etmoq” (o’lmoq o’rniga), “marhamat” (iltimos o'rniga), forscha “ dilxira” (xafa o’rniga) kabi iboralar o’zbek tilida evfemistik vazifani bajaradi. Bu hodisa o’zbek madaniyatida arab va fors tillarining tarixiy tasirini aks ettiradi.

Yana bir keng tarqalgan usul metafora va majoz bo’lib o’zbek tilida “u dunyoga ketmoq”, “olamdan o'tmoq”, “ko'z yummoq” kabi iboralar o'limni evfemistik ifodalaydigan metaforik birliklardir. Shuningdek, diniy-islomiy iboralar: “Alloh rahmat qilsin”, “jannatda bo'lsin”, “oxirat sari ketmoq” kabi iboralar o'zbek madaniyatida keng qo'llanib, o’lim mavzusini muqaddaslashtirish orqali yumshatadi. Bu xususiyat ingliz tilidagi protestantlik tasirida shakllangan evfemizmlardan farq qiladi. Bundan tashqari kinoya va litota va umumlashtrish orqali ham evfemik birliklar shakllanadi : “yaxshi emas” (yomon o’rniga), “biroz xatoga yo’l qo'ydi” (katta xato qildi o’rniga) kabi iboralar o’zbek tilida keng tarqalgan. “Nomalum”

referensiya: “u narsa”, “o'sha ish”, “shu gap” kabi noaniq iboralar tabu mavzularni tilga olmaslik uchun ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Allan, K., & Burridge, K. (1991). Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. Oxford University Press.
2. Brown, P., & Levinson, S.C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
3. Holder, R.W. (2008). Oxford Dictionary of Euphemisms: How Not to Say What You Mean. Oxford University Press.
4. Leech, G.N. (1983). Principles of Pragmatics. Longman.
5. Rawson, H. (1981). A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. Crown Publishers.
6. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. Oxford University Press.